



Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026- yil yanvar dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 177 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 15 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 162 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 1 985,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan 110,6 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 166,7 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 818,6 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 463,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 114,2 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 922 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 910 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 423,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 16,5 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 1 103,2 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 77,5 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Uychi (38,3 m), Norin (135,4 %) va Namangan shaxri (128,5 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026- yil 1-fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 314 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 308 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 606,8 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 130,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. METAMA'LUMOTLAR



Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.